

## GENDER DIPLOMATIYASINI TADQIQ ETISH NAZARIYALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

**Ergasheva Nozima**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA.

*Mazkur maqolada gender diplomatiyasini tadqiq etish xalqaro munosabatlar nazariyalari orqali asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada Xalqaro munosabatlarning feminizm va uning tarkibidagi boshqa tushunchalar, xususan, ayollararo diplomatiya(women-to-women diplomacy) konsepsiyasi, liberalizm asosidagi ayollarning siyosiy-huquqiy erkinliklari va konstruktivizm nazariyalari asosida gender diplomatiyasini tahlil qilinadi. Bu nazariyalar asosida olimlar bu sohaning xalqaro siyosatdagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilishadi.*

***Kalit so‘zlar:** feminizm, empirik feminizm, ayollararo diplomatiya(women-to-women diplomacy) konsepsiyasi, liberalizm, SEDAW, Pekin deklaratsiyasi, konstruktivizm.*

### KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonida xalqaro munosabatlar tizimi, xususan, xalqaro diplomatiya sohasi ham murakkab o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Xalqaro munosabatlarda “suveren davlat” tushunchasi zamonaviy erkak idealiga – ratsional, mustaqil va instrumental fikrlovchi subyekt obraziga asoslangan holda talqin etilgani ta’kidlanadi. “Anarxiya” tushunchasi esa ijtimoiy bog‘liqlik elementlaridan xoli, mavhum individlar tizimi sifatida tasvirlandi. Shuningdek, “kuch” tushunchasi asosan hukmronlik va ustunlik ma’nosida tor doirada izohlanib, uning ijtimoiy va struktural jihatlari yetarlicha yoritilmaganligi ko‘rsatiladi. Xavfsizlik masalasi esa strukturaviy zo‘ravonlik, iqtisodiy tengsizlik va ekologik tahdidlarni e’tibordan chetda qoldirgan holda an’anaviy harbiy-siyosiy yondashuv doirasida talqin qilingan. Bunday tamoyillarga tayanish natijasida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro kelishuv, diplomatik aloqalarni murakkablashtirmoqda. Chunki ko‘plab zamonaviy olimlar diplomatiyada gender jihatdan inkluzivlik mavjud emasligini bunga sabab qilib keltirishadi. Yangi bir gender diplomatiya yo‘nalishining diplomatiya sohasida paydo bo‘lishi va akademik darajada o‘rganilishi sohaning ahamiyatliligini yanada oshiradi. Shuningdek, an’anaviy diplomatiyadan farqli ravishda, gender diplomatiyasini nazariy jihatdan bir

qancha nazariyalar asosida tadqiq qilinish uning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rnini asoslab beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Xalqaro siyosatda gender diplomatiyasini asoslab bera oladigan bir qancha nazariyalar mavjuddir. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida gender diplomatiyasini chuqurroq tadqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, ruminiyalik feminist tadqiqotchi Korina Andrea Lira o'zining „Xalqaro munosabatlarda feminizm“ nomli asarida feministik xalqaro munosabatlar nazariyasida gender tengligi masalasining zamonaviy talqinini tizimli ravishda yoritadi. Shuningdek, shvetsiyalik siyosatshunos va gender tadqiqotchi Magda Lorena Kardenas tomonidan ishlab chiqilgan ayollararo diplomatiya (women-to-women diplomacy) konsepsiyasi ayollar o'rtasidagi diplomatik aloqalarning tinchlik jarayonlaridagi ahamiyatini ochib beradi. Muallif Gruziya va Myanma tajribasi asosida ayollar diplomatiyasi konfliktlardan keyingi jamiyatlarda ishonchni tiklash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligini asoslaydi.

Bundan tashqari, avstraliyalik siyosatshunos Stefan Burchil va boshqa olimlar bilan hamkorlikda yozilgan „Xalqaro munosabatlar nazariyalari“ kitobida liberalizm xalqaro munosabatlarning asosiy nazariyalaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Shu jihatdan, liberalizm feministik yondashuv bilan kesishib, normativ qadriyatlar va institutsional mexanizmlar orqali tinchlikni ta'minlash g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Mahalliy olimlardan esa gender tadqiqotchi olima Saidakbarova S.P. gender diskursini ijtimoiy konstruksiya sifatida tahlil qilib, gender rollarining ijtimoiy tasavvurlar orqali shakllanishini ko'rsatadi. Chunki gender va diplomatiya o'rtasidagi bog'liqlik ko'pincha normativ diskurslar orqali namoyon bo'ladi.

### **NATIJALAR**

Eng avvalo, gender diplomatiyasini chuqur tahlil qilish uni muayyan nazariy yondashuvlar asosida o'rganishni talab etadi. Chunki gender omili xalqaro siyosatda faqat empirik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy jihatdan shakllantirilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Tashqi siyosiy faoliyatda ayollarning faolligi, fikr-mulohazalari va diplomat sifatidagi yondashuvini inobatga olish mavjud muammolarga oson va kelishgan holda yechim topish imkoniyatini oshiradi. Shu bois, gender diplomatiyasini ilmiy tadqiq etishda xalqaro munosabatlarning feminizm, liberalizm va konstruktivizm kabi nazariyalari asosida o'rganish muhim hisoblanadi. Bu nazariyalar asosida ilmiy tadqiqot olib borgan tadqiqotchi olim va olimalar sohaning ilmiy asoslarini yaratish orqali xalqaro siyosatda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini yoritib berishga harakat qilishadi.

Feminizm nazariyasi. Xalqaro munosabatlarning feminizm nazariyasi gender diplomatiyasini asoslashda muhim ahamiyatga ega. Feminizm nazariyasiga oid qarashlar xalqaro munosabatlar faniga 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida, ya'ni "Sovuq urush" ning tugashi davridan boshlab kirib kelgan. Ushbu jarayonning muhim burilish nuqtalaridan biri esa 1988-yilda AQShning Massachusetts shtatidagi Uellsli kollejida o'tkazilgan ayollar, gender va xalqaro munosabatlar bo'yicha ilk xalqaro konferensiya bo'ldi. Ushbu konferensiyani tashkil etishda taniqli feministik olim Ann Tikner muhim rol o'ynagan bo'lib, bu voqea xalqaro siyosatda gender masalasining akademik muhokamaga faol kirib kelishiga turtki berdi [1]. Bundan tashqari, amerikalik taniqli faylasuf, jurnalist va siyosiy sharhlovchi Patrik Jozef Byukenen o'zining "G'arbning o'limi" kitobidagi madaniy inqilob nazariyotchilari yoxud Frankfurt maktabi deb nomlangan bobida, ya'ni matriarxat tuzumning joriy etilishi hamda erkak va ayolning oiladagi vazifalarining almashinuvini nazarda tutadigan "Androgin nazariyasi" ilgari suriladi. Bu nazariya bokschi-ayol, jangchi-ayol, yepiskop-ayol, ayol-xudo va shunga o'xshash timsollarning qonunlashtirilishiga xizmat qiladi. Ayollar kuchli va tajovuzkor, erkaklar esa qo'rqqoq va zaif etib tasvirlanishi Frankfurt maktabi ilgari surgan g'oyalar va u turtki bergan yangi feministik inqilob tantanasidan dalolatdir [2]. Zamonaviy davrga kelib bu ayol obrazlari qatoriga siyosatchi-ayol, diplomat-ayol va prezident-ayol kabi yangilari qo'shilganligi mazkur nazariyaning davom etayotganligini isbotlaydi.

Ushbu davr xalqaro tizimdagi kuchlar muvozanati o'zgarishi, yangi nazariy yondashuvlarga ehtiyoj kuchayishi va an'anaviy realistik hamda liberal paradigmalarni qayta ko'rib chiqish zarurati bilan ajralib turadi. Shu sharoitda feministik xalqaro munosabatlar nazariyasi gender omilini xalqaro siyosatni tushuntiruvchi muhim tahliliy kategoriya sifatida ilgari surdi va keyinchalik gender diplomatiyani tadqiq etishning nazariy asoslaridan biriga aylandi.

Xalqaro munosabatlarda feminizm – jahon siyosati, xavfsizlik va diplomatik jarayonlarni gender tengligi nuqtayi nazaridan tahlil qiluvchi nazariyadir. Feministik tadqiqotlar urush va mojarolar tarkibidagi muhim elementlarni – urushda ishtirok etish, qarshilik ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash operatsiyalari hamda ayollarning turli shakllardagi ishtirokini tahlil qiladi. Feminizm nafaqat ayollar va erkaklar o'rtasidagi hokimiyat munosabatlarini, balki gender rollarini ham xalqaro munosabatlar tizimida keng o'rganishga intiladi [3]. Feministik olimlarining ko'pchiligi asosan sohaning mavjud nazariy va metodologik asoslarini tanqidiy qayta tahlil qilishga e'tibor qaratdi. Ularning tadqiqotlari xalqaro munosabatlardagi asosiy tushunchalarning gender jihatdan shakllanganligini ochib berdi. Umumiy jihatdan, Feminizm nazariyasi keng

qamrovli nazariya hisoblanib, o'zida bir qancha boshqa nazariy qarashlarni ham mujassamlashtirgan.

Empirik feminizm – xalqaro siyosatda ayollarning ko'rinmas bo'lib qolish muammosini ochib berishga, genderni tahliliy kategoriya sifatida xalqaro munosabatlar nazariyasiga kiritishga hamda feministik epistemologiyani muqobil bilim ishlab chiqarish usuli sifatida asoslashga harakat qiladi. Bu jarayonda Sintiya Enlo, Ann Tikner va V. Peterson kabi olimlarning ishlari muhim nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi. Ular genderni faqat ijtimoiy rol emas, balki xalqaro siyosiy jarayonlarni shakllantiruvchi asosiy tuzilma sifatida talqin qildi. 1990-yillardan boshlab empirik tadqiqotlar rivojlanish, globalizatsiya va iqtisodiyot sohalarida gender tengsizliklarini ochib bera boshladi. Qolaversa, feminizm nazariyasiga ko'ra, "Xalqaro munosabatlar" va "xalqaro xavfsizlik" tushunchalarida nafaqat yuqori darajadagi diplomatiya xususiyatlari, balki ayollarning himoyasizligi ham aks ettirilishi lozim. Bu muammolar allaqachon davlat, tashqi siyosat va mintaqaviy chegaralar doirasidan chiqib, global muammoga aylangan. Bu holat feministlarning pozitsiyasini kuchaytiradi, ya'ni ular davlat hozirgi shaklida o'z fuqarolarining xavfsizligini ta'minlay olmaydi, deb hisoblaydilar.

Empirik feminizm qarashlar xavfsizlikni tahlil qilish chegaralarini ham kengaytirishga yordam beradi. Jismoniy va ma'naviy zo'ravonlikning global miqyosda mavjudligini ta'kidlab, bu yondashuvlar xavfsizlikni faqat davlat bilan bog'lashni shubha ostiga qo'yadi. "Qashshoqlikning feminizatsiyasi" hodisasini bitta davlatdan tashqari boshqa joylarda kuchaytirgan. Ya'ni globalizatsiya jarayonlari ayollarni ko'pincha arzon ishchi kuchiga aylantirib qo'ygan [4]. Bu esa ayollarning ko'pchiligi hali ham og'ir ahvolda yashayotganini ko'rsatadi.

Feminizm nazariyasining dastlabki bosqichida asosiy maqsadlardan biri ayollarni xalqaro siyosat subyekti sifatida ko'rinadigan qilish va ularning tajribasini ilmiy tahlil markaziga olib chiqish bo'ldi. Shu bilan birga, genderni tahliliy vosita sifatida qo'llash orqali davlatlar tashqi siyosati, diplomatik amaliyotlar va xavfsizlik konsepsiyalarining gender jihatdan markazlashgan tabiatini ochib berish maqsad qilindi. Bu esa bugungi kunda "gender diplomatiya" tushunchasining shakllanishiga bevosita nazariy zamin yaratdi [5]. Xalqaro munosabatlarning realizm, neorealizm va konservatizm kabi nazariyalarida asosan davlatlarning kuch va hokimiyati, xavfsizlik va manfaatlar, an'anaviy qadriyatlarining saqlanib qolishiga urg'u berilar ekan, ular ayollar masalalarini deyarli chetda qoldirgan. Xalqaro munosabatlarning feminizm nazariyasi esa bu nazariyalarni tanqid qilib, hozirgi xalqaro siyosat va siyosiy faoliyatning aslida gender jihatdan neytral emasligini ta'kidlaydi.

Tahliliy feminizm esa xalqaro munosabatlar tizimining tuzilishini qayta ko‘rib chiqadi va undagi asosiy tushunchalar ichiga singib ketgan jinsga oid bir yoqlama qarashlarni ochib beradi. “Jins” tushunchasi erkaklik ayollikning biologik farqlaridan ko‘ra, jamiyat tomonidan yaratilgan va teng bo‘lmagan ijtimoiy tasavvurlarni anglatadi. G‘arb jamiyatida ustun bo‘lgan erkaklik tasavvuri mustaqillik, suverenlik, aql va xolislik qobiliyati hamda umumiylik bilan bog‘lanadi. Aksincha, ayollik ko‘pincha ana shu xususiyatlarning yo‘qligi yoki yetishmasligi bilan ifodalanadi. Masalan, harbiy tizimlarda kundalik amaliyotlar aynan shunday jinsiy tasavvurlarni qayta ishlab chiqaradi: askarlar “ayollar va bolalarni” himoya qilish uchun o‘ldirishga o‘rgatiladi va shu bilan birga og‘riq yoki g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq “ayollarga xos” his-tuyg‘ularni bostirishga majbur qilinadi. Shu bois harbiy tayyorgarlik haddan tashqari darajaga olib chiqilgan erkaklikka moslashish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Biroq, Isroil-Falastin va sobiq Yugoslaviya hududlarida “Qora kiyimdagi ayollar” harakati urush va zo‘ravonlikka qarshi chiqib, tinchlikni targ‘ib qilgan. Lekin bunday harbiy harakatlardan tashqari deyarli barcha jamiyatlarda (Isroildan tashqari) ayollar “Ikkinchi darajali” fuqarolar yoki himoyasiz qurbonlar sifatida qaralgan. Himoya va himoyasizlik o‘rtasidagi bu munosabatlarni gender tengsizligi nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish orqali zamonaviy jamiyatdagi hukmronlik va bo‘ysunish tizimlari ko‘plab muammolarni hal etishga to‘sqinlik qilayotganini tushunish mumkin [6]. Jamiyatda yaratilgan genderga nisbatan bir taraflama qarash ko‘lankalarining zamonaviy xalqaro munosabatlar, jumladan, diplomatiyada ham mavjudlini tahliliy feminizm keltirgan fikrlar isbotlab beradi. Mazkur fikrlardan anglashimiz mumkinki, diplomat ayollar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega va ular davlat tashqi siyosati uchun yetarli darajada manfaatli muzokaralar va kelishuvlar olib borolmaydi degan xulosa kelib chiqadi.

Shuningdek, feministik xalqaro munosabatlar nazariyasi eng muhim qarashlaridan biri tinchlik o‘rnatish va mojarolarni hal qilish jarayonlarida ayollarning roliga alohida e‘tibor qaratishdir. An‘anaviy xalqaro munosabatlar nazariyalarida ushbu yo‘nalishlar ko‘pincha ikkinchi darajali yoki chetda qolgan masalalar sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, feministik yondashuvlar ularni markaziy tahlil obyekti sifatida o‘rganadi. Feministik tadqiqotlarga ko‘ra, ayollar urush va mojarolar sharoitida eng ko‘p zarar ko‘ruvchilardir. Ular urush natijasida zo‘ravonlik, majburiy ko‘chish va iqtisodiy qiyinchiliklar kabi og‘ir oqibatlariga duch keladilar. Shunga qaramay, ayollar ko‘pincha tinchlik muzokaralari va mojarodan keyingi tiklanish jarayonlaridan chetlashtiriladi, bu esa xalqaro tinchlik qurish jarayonlarining inklyuzivligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ayollararo diplomatiya(women-to-women diplomacy) konsepsiyasi. Bu konsepsiya feminizm nazariyasi tarkibida vujudga kelgan bo‘lib, yuqorida qayd etilganidek tinchlik masalalari va shu doiradagi kelishuv jarayonlarida ayollarning chetda qoldirilishini keskin ravishda tanqid qiluvchi qarashlar majmuasi hisoblandi. Bu konsepsiya xorij olimlari ilmiy asarlarida “women-to-women diplomacy” atamasi bilan tilga olinib, ayollar o‘z tinchlikparvar faolligi orqali qanday ijtimoiy transformatsiyani ko‘zlashini yoritadi va gender tengligini o‘z ichiga olgan, ayollararo diplomatiyaning asosiy xususiyati hisoblangan muayyan tinchlik tushunchasini va tinchlik muzokaralariga qanday hissa qo‘shishini tahlil qilishiga qaratilgan konsepsiyadir. Mazkur konsepsiya hozirgi urush va ziddiyatlar kuchaygan davrda juda ham faol qo‘llanila boshlagan. Bu konsepsiyani yuqorida ismlari keltirilgan feminist olimlar, xususan, yana bir xalqaro tadqiqotchi olimi Magda Lorena Kardenas o‘zining “Ayollararo diplomatiya: Gruziya va Myanma feministik tinchlikka intilish” nomli ilmiy ishida bu konsepsiya va uning amaliy faoliyatini Gruziya va Myanmadagi holat orqali tushuntirib bergan. U izohlagan konsepsiyaga ko‘ra, ayollararo diplomatiya xalq diplomatiyasidan namuna olgan holda vujudga kelganligini keltirib o‘tadi. Tinchlik faqat rasmiy siyosiy kelishuvga erishish bilan cheklanmaydi, balki jamiyatdagi chuqur ijtimoiy munosabatlar, adolatsizliklar va ziddiyatlarni o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli jarayon sifatida talqin etiladi. Mojaro va kelishmovchiliklarni hal etishda rasmiy muzokalardan ko‘ra xalqlarning o‘zlari kelishlari orqali hal etish esa tinchlik muzokaralari samaradiligini oshiradi.

Ayollararo diplomatiya aynan shu nuqtayi nazarni kengaytiradi va uni gender o‘lchovi bilan boyitadi. Ya’ni, bu konsepsiyada tinchlik qurish jarayoni faqat davlatlar yoki rasmiy muzokara ishtirokchilari darajasida emas, balki ayollar tomonidan amalga oshiriladigan pastdan yuqoriga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar orqali ham shakllanadi. Shu ma’noda, tinchlik jarayoni rasmiy muzokaralar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishidan qat’iy nazar, jamiyat ichida davom etuvchi o‘zgaruvchan faoliyat sifatida ko‘riladi.

Ayollararo diplomatiya yondashuvida mahalliy daraja alohida ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu darajada ayollar kundalik hayot tajribalaridan kelib chiqib konfliktning real oqibatlarini eng yaqqol his qiladi va shu asosda muqobil tinchlik amaliyotlarini shakllantiradi. Bu jarayon Magda Lorena Kardenas ta’kidlaganidek, konfliktning chuqur ildizlarini tushunish va ularni o‘zgartirishga qaratilgan ijtimoiy harakatni kuchaytiradi. Shu bilan birga, ayollararo diplomatiya fuqarolik jamiyatini tinchlik jarayonining asosiy aktorlaridan biri sifatida ko‘radi. Ayollar tashkilotlari va norasmiy ayollar tarmoqlari konflikt sharoitida nafaqat muloqot va ishonchni tiklashga hissa qo‘shadi, balki turli guruhlar o‘rtasida “ko‘prik vazifasini” bajarib,

jamiyatda yangi aloqalar va hamkorlik shakllarini yaratadi [7]. Olima Myanma va Gruziyani kesyisini tahlil qilishdan tashqari Bosniya va Ruandadagi urushlarda ham ayollarning siyosiy faolligini keltirib o‘tgan.

Feminist olimlar ushbu konsepsiyaning rivojidadagi eng muhim xalqaro hujjatlardan biri BMT Xavfsizlik Kengashining 1325-rezolyutsiyasi ekanligini ta’kidlab, u tinchlik va xavfsizlik masalalarida ayollarning tinchlik o‘rnatish jarayonlarida kengroq ishtirokini ta’minlashga chaqirgan, deb hisoblashadi [8]. Mazkur rezolyutsiya feministik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlangan eng muhim normativ va institutsional yutuqlardan biridir. Ayollar tadqiqotlari asta-sekin bilan gender tadqiqotlariga aylana boshladi va bunda jamiyat, madaniyat hamda insoniy munosabatlarning barcha jihatlarini gender bilan bog‘liq ekanligi asosiy g‘oya sifatida ilgari surildi.

Feminizm nazariyasida “onalar tafakkuri” konsepsiyasi ham shakllangan. Ushbu fikrga ko‘ra, ayollar, ayniqsa onalar, zo‘ravonlik va urushga tabiiy ravishda qarshi bo‘lib, o‘zining ijtimoiy va madaniy xususiyatlari sababli tinchlikparvar faoliyatga ko‘proq moyil hisoblanadi va bunday xususiyatdan diplomatiyada foydalanish samaradorlikni yanada oshirishi mumkin. Bu holatni feministik faylasuf olimi Sara Roddik atroflicha tahlil qilib, “onalik tafakkuri” himoya va g‘amxo‘rlik etikasiga asoslanganini ta’kidlaydi [9]. Bu ayol diplomatlarning ko‘pchiligi eng avvalo ona ekanligi jihatdan tinchlik masalasiga erkaklardan ko‘ra ko‘proq ahamiyat berishini anglatadi.

Feministlar fikricha, ayollarning yaqqol himoyasizligi xalqaro munosabatlarning asosiy subyektlari – davlatlar va transmilliy kompaniyalar faoliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi [4]. Biroq feministik yondashuv faqat ayollar himoyasizligini tushuntirish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy maqsadi – tengsiz ijtimoiy munosabatlar barcha insonlarni qanday qilib zaif holatga solib qo‘yishini ko‘rsatishdir.

Bu nazariya ham boshqa nazariyalar singari kamchiliklardan holi emas. Feminizm ko‘zdan qochirgan ayrim jihatlar mavjuddir. Eng avvalo, bu nazariyani ishlab chiqqan olimlarning ko‘pchiligi g‘arb olimlari bo‘lganliklari uchun nazariyaning asosiy tamoyillari g‘arb modeli asosida yaratilgan. Natijada nazariya boshqa mintaqa davlatlari modellariga tushmasligi mumkin. Misol uchun, islomiy davlatlar bu qarashlarni o‘zlari uchun qabul qilishlari juda qiyindir. Bundan tashqari, ayrim Sharq davlatlarida ham bu holat kuzatilishi mumkin. G‘arb qadriyatlariga asoslangan nazariyani boshqa xalqlar qadriyatlariga singdirish murakkab jarayonni vujudga keltiradi.

Liberalizm nazariyasi. Liberalizm nazariyasi shaxs erkinligi, xususiy mulk daxlsizligi, qonun ustuvorligi va cheklangan davlat boshqaruvini asosiy qadriyat deb biluvchi siyosiy va ijtimoiy ta'limotdir. Liberalizmning dastlabki yirik namoyandalari qatoriga Tomas Gobbs, Jon Lok va Jan Jak Russolar kiradi. Ular ayniqsa Fransuz inqilobi davrida faol bo'lib, merosiy hokimiyat, adolatsiz qonunlar va jamiyatning faqat ma'lum qatlam manfaatlariga xizmat qiluvchi tizimga qarshi chiqqanlar.

Liberalizmning eng muhim tamoyillaridan biri shaxs erkinligi hisoblanadi va gender doirasida u erkaklar va ayollar o'rtasida huquqlar, majburiyatlar, rollar va imkoniyatlar tengligini ta'minlash jarayoni sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, u gender masalalarida ham muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro munosabatlarda liberalizm nazariyasi institutsional tuzilmalarning asosini tashkil etadi va bu gender diplomatiyasining ham institutsional jihatdan tuzilganligini asoslab berishga xizmat qiladi. Avvalgi davrlarda jamiyat mafkuralari asosan erkaklar markazida shakllangan bo'lib, bu esa patriarxal va erkaklar hukmron tizimni yuzaga keltirgan. Liberal g'oyalarning rivojlanishi natijasida jamiyatdagi mavjud tizim asta-sekin o'zgarib bordi. Xususan, hozirgi davrda ayollarning bandlik darajasi sezilarli darajada oshdi, o'z fikrini erkin bildirish imkoniyati kengaya boshladi hamda ayollar siyosiy lavozimlar uchun faolroq kurashishga kirishdi.

Bunday o'zgarishlar avvalgi davrlarda deyarli kuzatilmagan edi. Shu bilan birga, liberalizm dastlab gender tengligini emas, balki umumiy siyosiy erkinlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Shu sababli ayrim tadqiqotchilar, jumladan Milli Uilyamson liberalizmni gender tengligining to'liq tarafdori deb hisoblamaydi. Uning fikricha, liberal davlatlar yaratgan imkoniyatlardan ba'zi kuchlar boshqa davlatlar ustidan hukmronlikni kuchaytirish uchun ham foydalangan. Shunga qaramay, ayollar o'z huquqlari uchun kurashishda aynan liberal davlatlar imkoniyatlaridan foydalanganlar. Shu sababli ayrim olimlar liberalizmni faqat gender tengligi emas, balki siyosiy erkinlik g'oyasi sifatida ko'radi. Har qanday holatda ham olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bu nazariya rivoji ayollarning jamiyatdagi mavqeyini sezilarli darajada o'zgartirgan. Bu jarayon demokratik davlatlarning rivojlanishi bilan qanchalik bog'liqligi esa alohida tadqiqot mavzusidir.

Yangi davrga kelib liberalizm nazariyasi feminizm bilan hamohanglikda yangi nazariyani vujudga keltirgan. Bu nazariya erkaklar va ayollar uchun teng huquqiy va ijtimoiy sharoitlar yaratishga qaratadi. Ularning fikricha, gender tengligiga erishish uchun qonunlar, ijtimoiy tizimlar va tarbiya jarayonidagi gender stereotiplarini yo'q qilish zarur. Liberal feministik nazariyaga ko'ra, jamiyat faqatgina odamlarning qarashlari o'zgargan taqdirdagina yanada adolatli va rivojlangan bo'lishi mumkin. Gender cheklovlari kamaygan sari iqtisodiy rivojlanish kuchayadi va ijtimoiy

muammolar, jumladan zo‘ravonlik darajasi kamayadi. Shuning uchun ular madaniy, ijtimoiy va huquqiy to‘siqlardan xoli, erkin jamiyatni ilgari suradi.

Bugungi kunda liberal feminizm g‘oyalari asta-sekin amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ayollar siyosiy lavozimlarda faol ishtirok eta boshladi, masalan AQSh va Braziliya kabi davlatlarda ayollar yuqori siyosiy pozitsiyalarni egallamoqda. Umuman olganda, liberal feminizm jamiyatda erkak va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qiladi. Hozirgi bosqichda esa asosiy masala nafaqat tenglikni ta‘minlash, balki bu erkinlikning jamiyatga, ayniqsa an‘anaviy qadriyatlarga ega davlatlarga (masalan, Nigeriya) qanday ta‘sir ko‘rsatayotganini tahlil qilishdan iborat.

G‘arb davlatlarida liberal g‘oyalar rivojlanishidan oldin ayollar saylov huquqidan mahrum bo‘lgan, ishga kirish imkoniga ega bo‘lishmagan va hatto qonun oldida to‘liq tan olinmagan. Masalan, AQShda 1920-yilgacha ayollarga ovoz berish huquqi berilmagan edi. Keyinchalik esa qonunlar qabul qilinib, jinsga qarab ovoz berish huquqidan mahrum etish ta‘qiqlangan [10].

Liberal g‘oyalar va ozodlik harakatlari haqiqatan ham jamiyatda jinsiy tenglikka asoslangan erkinlik uchun sharoit yaratdi. Aynan shu uzluksiz ijtimoiy kurash jarayoni feministik harakatlar tomonidan ham davom ettirilib, bugungi kunda erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar, rollar va imkoniyatlarga oid yangicha tushuncha va yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi.

Shuningdek, liberalizm huquq va erkinlik masalalari bilan bevosita bog‘liq ekan, ayollar siyosiy huquqlarining rivojlanib to siyosiy sohalaridagi faoliyatigacha bo‘lgan jarayonlarga qisqacha to‘xtalib o‘tish joizdir. Genderga oid jihatlar inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida milliy, mintaqaviy hamda xalqaro darajada mustahkam huquqiy kafolatlari shakllantirildi. Ayollar huquqlarini himoya qilish ayollarning taraqqiyot, tinchlik va xavfsizlikka qo‘shgan hissasini ta‘minlash uchun juda muhimdir. BMT ushbu tamoyilni tashkil etilganidan beri tan olgan va uni o‘z maqsadlaridan biriga aylantirgan. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomining 1-moddasida belgilangan maqsad va tamoyillar qatorida keltirilgan: “Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsadlari quyidagilardan iborat: Irqi, jinsi, tili yoki dinidan qat’i nazar, barcha uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni targ‘ib qilish orqali xalqaro hamkorlikka erishish” [11].

1946-yildayoq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi gender tengligini targ‘ib qilish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga bag‘ishlangan asosiy global hukumatlararo organ bo‘lgan Ayollar maqomi bo‘yicha komissiyani tashkil etdi [12]. Uning dastlabki yutuqlaridan biri 1948-yilda Fransiyaning Parij shahrida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon

deklaratsiyasini ishlab chiqishda ushbu tenglikni ta'minlash edi. 1948-yil 10-dekabrda Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy matni "barcha insonlar erkin va qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladi" va "har bir inson irqi, rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulki, tug'ilishi yoki boshqa holati kabi hech qanday farq qilmasdan ushbu Deklaratsiyada belgilangan barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lish huquqiga ega" ekanligini tasdiqlaydi [13].

1970-yillarda butun dunyoda feministik harakatlar kuchayib borar ekan, Bosh Assambleya ayollarning mavqeyini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish uchun 1975-yilni "Xalqaro xotin-qizlar yili" deb e'lon qildi. O'sha yili Ayollar mavqeyi bo'yicha komissiyaning iltimosiga binoan Meksikada birinchi Butunjahon ayollar konferensiyasi bo'lib o'tdi. Besh oy o'tgach, Mexiko shahar konferensiyasining tavsiyasi bilan Bosh Assambleya Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar uchun o'n yilligini (1976-1985) e'lon qildi va uni moliyalashtirish uchun "Ko'ngillilar Jamg'armasi" ni tashkil etdi [14]. Bu jamg'arma ayollarning ijtimoiy va siyosiy faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan hisoblanadi.

1979-yilda Bosh Assambleya ko'pincha "Ayollar huquqlari xalqaro deklaratsiyasi" deb ta'riflangan ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konventsiyani (CEDAW) qabul qildi [15]. 30 ta moddadan iborat bo'lib, unda ayollarga nisbatan kamsitishning turli shakllari aniq belgilangan va ularga qarshi kurashish bo'yicha milliy siyosat uchun ko'rsatmalar taklif qilingan.

1980-yilda, birinchi Mexiko shahri konferensiyasidan besh yil o'tgach, Kopengagenda Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar uchun o'n yillik dasturi doirasida Ikkinchi Jahon konferensiyasi bo'lib o'tdi. Natijada qabul qilingan Harakatlar dasturi ayollarning xususiy mulkka kirishini va ularning aktivlarini nazorat qilishni ta'minlash, shuningdek, ayollarning meros, bolalarni vasiylik qilish va fuqarolikka oid huquqlarini yaxshilash uchun kuchliroq milliy choralarni ko'rishga chaqirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar uchun o'n yillik: Tenglik, Taraqqiyot va Tinchlik natijalarini ko'rib chiqish va baholash vazifasi yuklatilgan Uchinchi Jahon konferensiyasi 1985-yilda Nayrobida bo'lib o'tdi. O'sha paytga kelib, gender tengligi harakati to'liq xalqaro miqyosda e'tirofqa sazovor bo'lgan edi va parallel Nodavlat notijorat tashkilotlar forumida 15 000 dan ortiq nodavlat tashkilotlari vakillari ishtirok etishdi [16]. 1995-yilda Xitoyning Pekin shahrida bo'lib o'tgan ayollar bo'yicha To'rtinchi Jahon konferensiyasi gender tengligi uchun kurashda yangi sahifa ochdi. Darhaqiqat, Pekin Harakatlar Platformasi ayollar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi va ushbu

huquqlarga hurmatni ta'minlash uchun aniq harakatlarni ilgari suradi. "Pekin deklaratsiyasi" ko'pchilik ayollar tomonidan "Ayollar konstitutsiyasi" sifatida e'tirof etiladi.

2025-yilda Pekin Harakatlar Platformasi o'zining 30 yilligini erishilgan yutuqlarni ko'rib chiqadigan va kelajakdagi harakatlar uchun ustuvor yo'nalishlarni ta'kidlaydigan yangi nashr bilan nishonladi [17]. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar Maqomi bo'yicha Komissiyasi (CSW) gender tengligini targ'ib qilish va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishlangan asosiy global hukumatlararo organdir [18]. U butun dunyo bo'ylab ayollarning hayotiy voqeliklarini aks ettirish orqali ayollar huquqlarini ilgari surishda muhim rol o'ynaydi va gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid global standartlarni o'rnatishga hissa qo'shadi.

2010-yil 2-iyulda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi gender tengligi va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi taraqqiyotni tezlashtirish vazifasi yuklatilgan yagona organ – BMT Ayollar tashkilotini yaratishni bir ovozdan ma'qulladi. BMT Ayollar tashkiloti to'rtta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratadi: ayollar yetakchiligi va siyosiy ishtirokini rag'batlantirish, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish va ayollarning tinchlik jarayonlari va xavfsizlikni ta'minlashdagi sa'y-harakatlarida to'liq va teng ishtirokini qo'llab-quvvatlash [19]. Bundan tashqari, 2000-yil 31-oktabrda BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul 1325-rezolyutsiyasi zamonaviy davrdagi xalqaro munosabatlar tizimida ayollar diplomatiyasining rivojlanishida muhim tarixiy hujjatga aylangan. Rezolyutsiya qurolli mojaralarda ayollar va qizlarning himoyasini mustahkamlash, ularni tinchlik muzokaralari va tiklanish jarayonlarida faol ishtirok etishini ta'minlashni talab qiladi. U mojarolar ayollarga nisbatan o'ziga xos va og'ir ta'sir ko'rsatishini tan oladi hamda ularning xavfsizligi inson xavfsizligining ajralmas qismi sifatida qaralishini belgilaydi. Ushbu rezolyutsiya 97 ta davlat, jumladan Xavfsizlik Kengashining barcha 15 a'zosi hamkorligida qabul qilingan. 2005-yil oxirida esa BMT ning Tinchlik o'rnatish komissiyasi tashkil etilishi bilan bu sohaning huquqiy asoslari yanada mustahkamlandi [20]. Gender masalasining xalqaro siyosatga kirib kelishi uchun yaratilgan bu kabi huquqiy asoslar uning siyosiy o'rnini yanada mustahkamlab, gepder diplomatiyasi bo'lib shakllanishiga yordam berdi.

Konstruktivizm nazariyasi. Konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasida muhim yondashuvlardan biri bo'lib, u xalqaro tizimdagi asosiy tushunchalar – davlat manfaatlari, o'zligi va xulq-atvori ijtimoiy jihatdan shakllanishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, xalqaro siyosat faqat moddiy omillar, ya'ni harbiy kuch yoki

iqtisodiy resurslar bilan belgilanmaydi, balki g'oyalar, me'yorlar va ijtimoiy tasavvurlar orqali ham vujudga keladi. Konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasi sifatida 1990-yillardan boshlab ilmiy doiraga kirib kegan va uning asosiy vakillaridan biri bo'lgan Aleksandr Vent, Nikolas Onuf va Kratochvillar ta'kidlaganidek, xalqaro tizimdagi anarxiya davlatlar tomonidan qanday talqin etilishiga bog'liq bo'lib, bu tizimning mazmuni ijtimoiy o'zaro ta'sirlar orqali shakllanadi [21]. Shu bois, xalqaro munosabatlar tizimi qat'iy berilgan tuzilma emas, balki doimiy ravishda o'zgarib boruvchi ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur nazariya doirasida gender tushunchasi ham biologik tushuncha asosida emas, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi.

Gender diskursi jamiyatda mavjud gender rollari, stereotiplari va ijtimoiy kutishlarning til orqali ifodalanish shaklidir. Uni modellashtirish esa ushbu diskurslarning qanday paydo bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois gender diskursini modellashtirish hukumatlar, diplomatik xizmat va ijtimoiy institutlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Gender diskursi ijtimoiy konstruktsiya sifatida qaraladi. Ya'ni gender insonning tug'ma xususiyati emas, balki ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadigan hodisadir. Bu yondashuvga ko'ra, gender kundalik muloqot, ijtimoiy amaliyotlar va institutsional siyosatlar orqali yaratiladi. Masalan, "Yetakchilik bu erkaklik xususiyati" iborasi ushbu fikr erkaklik va yetakchilik o'rtasida sun'iy bog'liglikni yaratadi va ayollarning rahbarlik qobiliyatini bilvosita inkor etadi [22]. Bunday diskurslar jamiyatda gender tengsizligini mustahkamlovchi omillardan biri hisoblanadi. Gender ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonidan vujudga kelgan. Shuning uchun gender tenglikka erishish individual xatti-harakatlarga emas, balki institutsional va diskursiv o'zgarishlarni ham talab etadi.

Shuningdek, gender masalalarini o'rgangan amerikalik olim Janis Bohan genderning ijtimoiy konstruksiyasi ko'pincha genderning ijtimoiylashuvi bilan adashtirilishi, gender shaxsning ichida mavjud emas, balki gender deb talqin qilinadigan ijtimoiy fikr o'zaro munosabatlarda mavjudligini ta'kidlaydi [23]. Bu fikr diplomatiya sohasiga ham taalluqli bo'lib, ma'lum bir subyektlar tomonidan yaratilgan normalar natijasida diplomatiya faqat erkaklar faoliyati sifatida shakllangan. Erkaklar diplomatiya, umuman siyosiy faoliyatda yetakchi ekanligi haqida qarashlar boshqa nazariyalarda obyektiv qarash sifatida talqin qilinib kelingan. Aynan, bu nazariya ayollar va erkaklarning bu sohadagi roli ijtimoiy jihatdan yaratilganligini ko'rsatib beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, gender omili xalqaro siyosatda faqat empirik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy jihatdan shakllantirilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Tashqi siyosiy faoliyatda ayollarning faolligi, fikr-mulohazalari va diplomat sifatidagi yondashuvini inobatga olish mavjud muammolarga oson va kelishgan holda yechim topish imkoniyatini oshiradi. Shu bois, gender diplomatiyasini ilmiy tadqiq etishda xalqaro munosabatlarning feminizm, liberalizm va konstruktivizm kabi nazariyalari asosida o‘rganish muhim hisoblanadi. Quyida keltirilgan barcha nazariyalar gender masalasini va uning diplomatiyadagi mohiyatini izohlashga va tahlil qilishga yordam beradi. Bu nazariyalar gender diplomatiyasining maqsad va vazifalarini, ilmiy soha sifatida vujudga kelishi, shuningdek xalqaro munosabatlar tizimida shakllangan huquqiy asoslari hamda uning qanday insonlar ongida qanday yaratilganligini ifodalab beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Feminist perspective in international relations. (2024). San Francisco: Scribd Inc. Retrieved from <https://www.scribd.com/document/894791421/Feminist-Perspective-in-International-Relations-1>. – P.2.
2. Бьюкенен П.Ж. (2021). Фарбнинг ўлими. “Илм-Зиё-Заковат” нашриёти – Т.:. – Б.109.
3. Liră, C.-A. (2022). *Feminism in international relations*. Bucharest: Carol I National Defence University. – P. 92.
4. Основные научные направления теории международных отношений. (2016). Белорусский государственный университет. Retrieved from <https://studfile.net/preview/5622801/page:7/>
5. Tickner J. A. (2001). *Feminist international relations*. Graduate Institute of International and Development Studies,. Retrieved from <https://repository.graduateinstitute.ch/record/296121/files/Feminist-international-relations-AAM.pdf>. – p p.6-7.
6. Burchill S. and others. (2005). *Theories of International Relations*. 3<sup>rd</sup> ed. Basingstoke, Palgrave Macmillan. – p p.216-222.
7. Cárdenas, M. L. (2022). *Women-to-Women Diplomacy: The pursuit of feminist peace in Georgia and Myanmar*. Department of Political Science & Umeå Centre for Gender Studies, Graduate School for Gender Studies. – p p.8-10.
8. Monyutahkaishu. (2024). *Feminist perspective in international relations*. San Francisco: Scribd Inc. Retrieved from <https://www.scribd.com/document/894791421/Feminist-Perspective-in-International-Relations-1>. – P.6.

9. Сарбаева Р.Е. (2015). Мировая политика с гендерных позиций: феминистские теории международных Отношений. KazNU Bulletin. International relations and international law series. №3 (71). – С.43.
10. Omoniyi-Oyafunke, O. C., Adisa, I. B. (2017). Gender liberalism: prospects and implications in a changing society. Gender and Behaviour. – Vol. 15, no. 1. – p p.8182–8183.
11. Charter of the United Nations. (1945). Preamble. Retrieved from <https://www.un.org/fr/about-us/un-charter/preamble>
12. Commission de la condition de la femme. (1946). ONU Femmes. Retrieved from <https://www.unwomen.org/fr/nos-methodes/commission-condition-de-la-femme>
13. Déclaration universelle des droits de l’homme. (1948). Nations Unies. Retrieved from <https://www.un.org/fr/universal-declaration-human-rights/>
14. World Conference of the International Women’s Year. (1975). Retrieved from [https://undocs.org/fr/A/RES/3520%20\(XXX\)](https://undocs.org/fr/A/RES/3520%20(XXX))
15. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW). (1979). United Nations. Retrieved from <https://www.ohchr.org/FR/ProfessionalInterest/Pages/CEDAW.aspx>
16. World Conference of the United Nations Decade for Women. (1980). United Nations. Retrieved from <https://www.un.org/fr/conferences/women/copenhagen1980>
17. Beijing Declaration and Platform for Action. (1995). United Nations. Retrieved from [https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/CSW/BPA\\_F\\_Final\\_WEB.pdf](https://www.unwomen.org/sites/default/files/Headquarters/Attachments/Sections/CSW/BPA_F_Final_WEB.pdf)
18. Commission de la condition de la femme: 68e session (CSW68). (2024). Nations Unies. <http://www.unwomen.org/fr/csw>
19. UN Women. (2010). United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women. Retrieved from <https://www.unwomen.org/fr>
20. Kane A. (2020). Show me the Progress: Women in Diplomacy and International Affairs. Resolution 1325 and Beyond. Voices for chance and inclusion,. – p p.3-4.
21. Reus-Smit C., Snidal D. (2008). The Oxford Handbook of International Relations. Oxford University Press. – P.299.
22. Saidakabarova, S.P. (Fevral, 2026). Gender diskursini modellashtirish tamoyillari: nazariy asoslar va ijtimoiy-amaliy yondashuvlar. Oriental Renaissance. – P.149.
23. Mary Gergen. (2009). Positionings in Gendered Relations: From Constructivism to Constructionism. Pennsylvania State University. Retrieved from [https://www.taosinstitute.net/files/Content/5692946/manu\\_gergen\\_01.pdf](https://www.taosinstitute.net/files/Content/5692946/manu_gergen_01.pdf)